

TARBIYASI OG'IR BOLALAR BILAN PROFILAKTIK ISHLAR OLIB BORISHNING PSIXOLOGIK JIHLARI

Raxmatillayev Abror Abduraxmon o'g'li

IV Akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti

Аннотация: Ushbu maqolada tarbiyasi og'ir bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan profilaktik tadbirlarning ijtimoiy-psixologik, pedagogik xususiyatlari nazariy va amaliy o'rganilib, tahlil qilib chiqilgan. Respublikamizda profilaktik ishlar olib borishda voyaga yetmaganlarning, ayniqsa, xulqida og'ish kuzatilgan o'smirlarning ma'naviy-madaniy qiyofasini va munosabatlarini shakllantirish zarurligi, bunda avvalo, xulq og'ishining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash zarurligi, oilada va maktabda psixologik-pedagogik jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, profilaktik faoliyatni tashkil etishda psixologik-pedagogik bilimlarning ahamiyati batafsil yoritilgan.

Voyaga yetmaganlar bilan ishlashda oilaning o'rnini beqiyosligi, inspektor psixologning xizmat vazifalariga mas'uliyatli bo'lmoqligi, xalq va millat an'analari, urf-odatlarining ta'siri kuchli ekanligi, shuningdek, oila, maktab va jamoat hamkorligini kuchaytirish zarurligi aytib o'tilgan. Bundan tashqari, o'smir shaxsining shakllanishi, tarbiyasi og'ir o'smirlarga psixologik tavsif, o'smirlik davrining psixologik o'ziga xosligi bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье теоретически и практически исследованы и проанализированы социально-психологические и педагогические особенности профилактических мероприятий, проводимых с детьми и подростками с трудным воспитанием. Подробно рассматривается необходимость формирования духовно-культурного облика и установок несовершеннолетних, особенно подростков с девиациями поведения, при проведении профилактической работы в нашей республике, прежде всего, необходимость выявления социально-психологических факторов девиаций поведения, правильного построения психолого-педагогического процесса в семье и школе, а также значение психолого-педагогических знаний в организации профилактической деятельности.

Отмечены исключительная роль семьи в работе с несовершеннолетними, ответственность инспектора-психолога при исполнении им своих обязанностей, сильное влияние национально-этнических традиций и обычаев, а также необходимость укрепления взаимодействия семьи, школы и общества. Кроме того, раскрыты особенности формирования личности подростка, психологические особенности подростков с трудным воспитанием, психологическая специфика подросткового возраста.

Abstract: This article theoretically and practically studies and analyzes the socio-psychological and pedagogical features of preventive measures carried out with children and adolescents with difficult upbringing. The need to form the spiritual and cultural image and attitudes of minors, especially adolescents with behavioral deviations, in conducting preventive work in our republic is discussed in detail, first of all, the need to identify the socio-psychological factors of behavioral deviations, the correct establishment of the psychological and pedagogical process in the family and at school, and the importance of psychological and pedagogical knowledge in organizing preventive activities.

The incomparable role of the family in working with minors, the responsibility of the inspector psychologist in his duties, the strong influence of national and ethnic traditions and customs, as well as the need to strengthen cooperation between family, school and society were mentioned. In addition, the formation of the adolescent personality, the psychological characteristics of adolescents with difficult upbringing, and the psychological specificity of adolescence were described.

Kalit soʻzlar: oʻsmirlik davri, psixik va jismoniy rivojlanish, normadan ogʻuvchi xulq, moslashish va dezadaptatsiya, psixoprofilaktika, rehabilitatsiya.

Kirish

Maʼlumki, yoshlar taʼlim-tarbiyasi, ularning barkamol shaxs sifatida shakllanish masalasi har bir mamlakatda oʻz davrining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralib kelingan. Ayniqsa, yurtimizda yoshlar va voyaga yetmaganlarning odob-axloqi,

psixofiziologik holati, shaxslararo munosabatlari, dunyoqarashi, bilim saviyasiga bo‘lgan e‘tibor kundan kunga oshib bormoqda. Davlatimiz rahbari va davlat hokimiyat organlari tomonidan chiqarilayotgan normativ huquqiy hujjatlarda ham istiqbolli yosh avlodni to‘g‘ri tarbiya topishiga, yuksak ma‘naviy fazilatlar egasi bo‘lib voyaga yetishiga, hayotga faol munosabatda bo‘lishiga hamda oliy maqsadlarga xizmat qilishiga zamin yaratilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, xulqida og‘ish kuzatilgan o‘smirlarning ma‘naviy-madaniy qiyofasini va munosabatlarini shakllantirish zarurligi, bunda avvalo, xulq og‘ishining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash zarurligi, oilada va maktabda psixologik-pedagogik jarayonni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, profilaktik faoliyatni tashkil etishda psixologik-pedagogik bilimlarning ahamiyatini o‘rganish va tahlil qilish yoshlarning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetuk va jismonan sog‘lom bo‘lishi uchun barcha birdek qayg‘urishi hamda kurashmog‘i zarurligini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: “Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta‘sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma‘naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma‘naviy qudrati va boqiy an‘analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz”¹, – deb ta‘kidladilar. Prezidentimizning ushbu fikrlari yoshlarning, ayniqsa, voyaga yetmaganlarning zamonaviy xavfli tahdidlarga qarshi imunitetini hosil qilishi, milliy ong va madaniyatni to‘g‘ri shakllantirishi, milliy urf-odat, an‘ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashi,

¹ Sh.M.Mirziyoyev Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega, Yoshlar forumida so‘zlagan nutqi. 25-dekabr 2020-y.

shuningdek, Yangi O‘zbekistonning uchinchi renesansiga poydevor sifatida qarashimiz lozimligini anglatadi.

Asosiy qism

O‘smirlik yoshi inson shaxsining shakllanish davri bo‘lib, bu bosqichda o‘smir organizmida biologik, fiziologik yetuklik borasida tub o‘zgarishlar amalga oshadi, shuningdek, fiziologik rivojlanish va jinsiy balog‘atga yetish davrining yangi bosqichi boshlanadi. Boyning o‘sishi, vaznning ortishi, ko‘krak qafasining kengayishi, jismoniy rivojlanishi o‘smirlik yoshiga xos xususiyatlardir. Ushbu biologik o‘shish natijasida o‘smir shaxsining individual-psixologik xususiyatlari tubdan o‘zgarishi kuzatiladi, buning oqibatida o‘smir nihoyatda o‘zgaruvchan bo‘lib, o‘zini nazorat qilish yetarli darajada rivojlanmaganligi bois, yuzaga keladigan ijtimoiy turg‘unlik tufayli jamiyatga moslashish nuqsonlari g‘ayriijtimoiy qilmishlar ko‘rinishida nisbatan oson namoyon bo‘la boshlaydi, ba‘zan esa barqaror xulq-atvor sifatida mustahkamlanadi. Inson o‘z hayotidagi eng muhim qarorlarni, jumladan, kasb-hunar tanlash, oila qurishga tayyorgarlik kabilarni aynan mana shu yoshda qabul qiladi, agar o‘zi qabul qilgan qarorlarni keyinchalik muvaffaqiyatsiz deb hisoblaydigan bo‘lsa, u holda bu ishonchsizlik uning xulq-atvoriga nihoyatda salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Voyaga yetmaganlarning xulqida kuzatilayotgan aksilijtimoiy xulq-atvor, pedagogik qarovsizlik, moslasha olmaydigan xulq, axloqsiz xulq, deviant xulq, autodestruktiv (o‘zini o‘zi fosh qilish) xulq va boshqa salbiy xulq-atvor ko‘rinishlari dastavval, o‘smirning so‘roqsiz uydan chiqib ketishi, uyga kelmay qolishi, ota-ona va kattalarning nasihatlariga quloq solmaslik kabi odatlarni shakllanishida, keyinchalik, jinoiy harakatlarni amalga oshirilishida namoyon bo‘la boshlaydi. O‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar, tengdoshlar guruhining ta‘siri katta hisoblanadi.

O‘smirlik davrining yirik tadqiqotchilaridan L.S.Vigotskiy tomonidan yaratilgan madaniy-tarixiy nazariyasi, Sh.Byulerning o‘smirlik yoshini “pubertat davri²”ga oid izlanishlari, o‘smirlik davrining pubertat inqirozlarini konstruktiv baholanishiga oid D.E.Elkonin, V.V.Davidov va A.N.Leontevning tajribalarini o‘rganish voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga sababchi bo‘layotgan omillarni tahlil qilib, shunga muvofiq profilaktik ishlarni samarali usullarini qo‘llash, ya’ni ularning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishlarini ta’minlash, kasbga o‘rgatish, o‘quv muassasalariga joylashtirish, hunar va bilim egallashlarini ta’minlash ishlarini tashkil etishda metodologik asos bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, Ichki ishlar organlari tizimida xodimlar va ularning oila a’zolariga psixologik yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilib, katta inspektor psixologlar ushbu faoliyatni olib bormoqdalar, shuningdek, aholiga ham pullik xizmat ko‘rsatish Markazlari faoliyatini tashkil etish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Ushbu Markazda faoliyat olib boruvchi inspektor psixologning yoshlar va voyaga yetmaganlar bilan ishlashiga oid asosiy vazifalari:

voyaga yetmaganlarda tushkun kayfiyat hamda o‘tish davridagi agressiv xulq-atvor ko‘rinishlarini, ota-onalari bilan keskin munosabatdagi va tarbiyasi og‘ir bolalar bilan psixokorreksion tadbirlarni amalga oshirish;

yoshlarni kasbga yo‘naltirish, kasbga yo‘nalganlik darajasini aniqlash hamda professiografik tahlillar o‘tkazish;

yoshlar, shu jumladan, voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida fuqarolik jamiyati institutlari hamda boshqa davlat

² “pubertat davri” biologik o‘sish davri bo‘lib, jinsiy yetilish o‘z nihoyasiga yetadi, ammo jismoniy rivojlanish davom etadi.

va nodavlat organlari, shuningdek, xorijiy tashkilotlar bilan psixologik ishlarni tashkil etish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish hisoblanadi³.

Yoshlar va voyaga yetmaganlar bilan ishlashda, avvalo, har bir insonga muayyan chora-tadbirlar algoritmi kerak bo'ladi. Shu maqsadda Markazdagi inspektor psixologning asosiy amaliy faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

a) Targ'ibot-tashviqot yo'nalishida:

❖ tegishli tashkilot va muassasalar bilan hamkorlikda yoshlar o'rtasida giyohvandlik, diniy aqidaparastlik, huquqbuzarliklarning oldini olish, internetga qaramlik va boshqa salbiy illatlarga qarshi kurashish borasida psixologik targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

❖ oilada sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit va turmush tarzini targ'ib qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish bo'yicha psixologik manbalardan keng foydalangan holda buyurtma asosida tadbirlar uyushtirish.

b) Psixokonsultatsiya yo'nalishida:

❖ ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklarni ijobiy hal etishda psixologik yordam berish;

❖ yoshlarda uchraydigan salbiy hissiy-irodaviy holatlar va individual-psixologik xususiyatlar bo'yicha ota-onalarga tushunchalar berish;

❖ yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilada vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy omillarni barvaqt oldini olish bo'yicha maslahat va tavsiyalar berish;

❖ xulqi va xatti-harakatlarida salbiy psixologik o'zgarishlar yuzaga kelgan turli yosh vakillariga individual maslahatlar berish.

v) Psixodiagnostik ishlar yo'nalishida:

❖ o'rta umumta'lim maktabi o'quvchilarini kasbga bo'lgan layoqati va yo'nalganlik darajasini aniqlash va tavsiyalar berish;

³ Ichki ishlar vazirining 2023 yil "10" apreldagi 185 - son buyrug'iga 1-ilova 2-bob 11-band

- ❖ yoshlarning shaxsiy muammolariga yechim topish va ularga zarur psixologik yordam ko'rsatish maqsadida ota-onalar yoki ularning qonuniy vakillari, shuningdek, pedagoglar (ularning roziligi asosida) bilan psixodiagnostik ishlarni olib borish;

- ❖ yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bo'lg'usi kelin-kuyovlarning o'zaro psixologik mosligini aniqlash, baxtli va mustahkam oilaviy munosabatlar qurishda tavsiyalar berish;

- ❖ shaxsning jinoyat sodir etgan vaqtdagi ruhiy holati to'g'risida psixologik ekspertiza xulosalarini berish;

- ❖ yoshlarning xulq-atvor motivlarini o'rganish;

- ❖ yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni asrab olish va vasiylik qilish borasida fuqarolarning individual-psixologik xususiyatlari va motivlarini aniqlash;

g) Psixokorreksiya yo'nalishida:

- ❖ yoshlarda tushkun kayfiyat hamda o'tish davridagi agressiv xulq-atvor ko'rinishlarini bartaraf etish;

- ❖ ota-onalari bilan keskin munosabatlar va tarbiyasi og'ir bolalar bilan korreksion tadbirlarni amalga oshirish;

- ❖ oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni bartaraf etish⁴;

O'smirlarda xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining oldini olishga qaratilgan o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'smirning oilaviy muhiti, tarbiyalanganlik darajasi va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki, oila muhitini bilish o'smir shaxsi haqida, uning tarbiyalanganlik darajasi va turmush tarzi, ijobiy va salbiy fazilatlari haqida ma'lumotlarni beradi. Xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalarga profilaktik ta'sir ko'rsatishda o'smirning shaxs sifatida shakllanish jarayonini, uning o'ziga xos xususiyatlarini, xarakter xislatlari va psixologiyasini hisobga olgan holda ish tutish yaxshi

⁴ Ichki ishlar vazirining 2023 yil " 10 " apreldagi 185 - son buyrug'iga 1-ilova 3-bob 14-band

natija berishligini unutmaslik lozim. Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining oldini olishning muhim shartlaridan yana biri tarbiyaviy jarayonda maktab va oila hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish bo'lib hisoblanadi. Afsuski, bu masalani bugungi kunda talab darajasida deya olmaymiz. Shuning uchun ham bunday paytlarda ko'pincha oila va maktab hamkorligi, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqaning uzilishi tufayli bolalar va o'smirlar tarbiyasini, ayniqsa, ular xulqidagi o'zgarishlarni tuzatish ancha qiyin kechadi. O'qituvchi o'quvchi o'sib voyaga yetayotgan oila muhitini, uning axloqiy qiyofasini har doim ham bilavermaydi. Ba'zan ayrim o'qituvchilar bolalar va o'smirlar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarni ota-onalar bilan maslahatlashmay, ular haqida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lmay amalga oshiradilar. Bunday holatlarda tabiiy ravishda tarbiyaviy tadbirlarning olib borilishidan ko'zda tutilgan profilaktik choralarning ta'sirchanlik darajasining pasayishi holati kuzatiladi. Oqibatda profilaktikadan ko'zlangan maqsadga erishilmay qolinadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, oila muhitining sog'lomligi, ota-onalar va oilaning boshqa a'zolarining madaniy, aqliy, ma'naviy va axloqiy jihatdan barkamolligi oilada tarbiya olayotgan bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning ilm-u ma'rifatliligi bolalar va o'smirlarda g'ayriqonuniy xulqning oldini olishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Xulosa

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish tadbirlari samaradorligi va ularning ta'sirchanligi eng avvalo, o'smir shaxsidagi ijobiy fazilatlar, ijtimoiy foydali ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda o'quv-tarbiyaviy tadbirlar va mashg'ulotlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning dastlabki profilaktik tadbir sifatida xizmat qilishi kerak.

Jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida o'zaro yaqinlik va sog'lom munosabatni yuzaga keltirishga bog'liqdir. Shuning uchun o'qituvchining tarbiyasi og'ir o'smirmga nisbatan

berayotgan e'tiborini, ularni o'zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermoqchi bo'layotganligini o'smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi. Bu o'smir xulqini sog'lomlashtirishga qo'yilgan ilk qadam bo'lib hisoblanadi.

O'smirdagi dezadaptatsiyalangan xulqni tuzatishning keyingi sharti o'smir psixikasidagi o'zgarishni o'z vaqtida aniqlash va tibbiy, psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish bo'lib hisoblanadi. Bunda amaliyotchi psixologning xizmati katta bo'lishi lozim. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari mahalla huquq tartibot maskani profilaktika inspektorlari hamda yoshlar va voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlari zimmasiga voyaga yetmaganlar bilan ishlashni kuchaytirish vazifasini topshirish bizningcha maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, maktab, o'rta maxsus ta'lim maskani faoliyatiga psixiatr shtat birligini joriy etish yoki bo'lmasa maktab psixologi tibbiy-psixiatrik bilimlar bilan qurollantirilishi yaxshi natija berishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan yurtimizda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy yetuk bo'lib ulg'ayishi, jumladan, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, ommaviy sportga keng jalb etish maqsadida sport sog'lomlashtirish muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir qator chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda hamda yoshlar o'rtasida sportning barcha yo'nalishlarida musobaqalar o'tkazilib, sovrindorlarni va faol ishtirok etgan sportchi yoshlarni rag'batlantirish va esdalik sovg'alari bilan mukofotlash amalga oshirilmoqda. Bu qilinayotgan ishlarning barchasi yoshlarni, ayniqsa, voyaga yetmaganlarni barkamol shaxs sifatida shakllanishiga, kelajakda farovon va baxtli yashashligiga zamin yaratayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib jahonda turli nizo va ziddiyatlar avj olayotgani, terrorizm, ekstremizm balosi, ommaviy madaniyat va boshqa tahdidlar internet makoniga chuqur kirib, moslashib olgani barchamizga ma'lum va ayon. Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimiz sezgir va ogoh bo'lishi, har bir masalada, avvalo, Vatan manfaatlarini o'ylab ish tutishi, har qanday xavf-xatarga qarshi tura olishi va o'zida imunitet hosil qilishi zarur. Ilim-ma'rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, vatanga muhabbat, tarixiy-

madaniy merosni asrab-avaylash, ma'naviy poklik, kattalarga hurmat – kichiklarga izzat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo'lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni va qadriyatlarimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerakligini anglamoqligimiz, shuningdek, yurtimizda tarbiyasi og'ir bolalar bilan profilaktik ishlash mobaynida milliy qadriyatlarimiz, zaruriy psixologik-pedagogik ta'lim jarayoni metodlari hamda oila, maktab va jamoat hamkorligini kuchaytirish zarurligi kabi masalalar alohida ahamiyatga ega.

O'smirlarda destruktiv xulq ko'rinishlarini namoyon bo'lishi muammosi kompleks xarakterga ega bo'lib psixolog, psixiatr, pedagoglar, ota-onalar, mahalla faollari, o'smir ta'lim tarbiyasi uchun mutasaddi bo'lgan barcha ijtimoiy xizmat xodimlarining hamkorlikda faoliyati asosida amalga oshirilishi ushbu muammoni bartaraf etish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz.- T.: "O'zbekiston" 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.- T.: "O'zbekiston" 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- T.: "O'zbekiston" 2021.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: "O'zbekiston", 1997.
5. Karimov I.A. Yoshlarimiz – xalqimizning ishonch va tayanchi. - T.: "Ma'naviyat", 2006.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008.
7. Tulaganova G.K. Tarbiyasi qiyin o'smirlar: Psixolog mutaxassislar va amaliy psixologlar uchun. - T.: 2005.
8. Xakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O'quv qo'llanma; -T.: 2013.

9. Yadgarova G. va Avlayev O. Tarbiyasi qiyin, qaltis guruhga mansub bolalar bilan ishlash (Uslubiy qo‘llanma); – T.: 2007.
10. G‘oziyev G‘.E. O‘smirlar to‘g‘risida umumiy tushuncha; - T.: 1994.
11. Sirliyev B.N., Ismailova N., Xakimova I.M. Stress va agressiya: O‘quv-uslubiy qo‘llanma; - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013.